

Ona tili va adabiyot

1. Imloviy jihatdan xato yozilgan so‘zlarni toping.
 - A) e’tiqod, kamolot
 - B) g‘alayon, tafakkur
 - C) hotirjam, hunarmand
 - D) intuluvchan, ustinsiz

2. Qaysi gapda ajratib ko‘rsatilgan so‘z imloviy jihatdan xato yozilgan?
 - A) Ko‘klamda yashargan keksa tol ham hayot qo‘srig‘ini aytmoqda.
 - B) Menda bir fikr tug‘ildi.
 - C) Qizlar kulushib gaplashishardi.
 - D) Shovulladi tun bo‘yi shamol.

3. Chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar qatorini aniqlang.
 - A) rang//barang, top//toza
 - B) aytgan//emish, tevarak//atrof
 - C) qochdi//ketdi, jon//kuyar
 - D) baland//parvoz, yakkama//yakka

4. Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog‘liq xatolik mavjud emas?
 - A) Samimiylit ham – xuddi husn va aql kabi ehsan.
 - B) Odamda tasavvur bor, xayoliga nimaningdir, yoki kimningdir suratini keltira oladi.
 - C) Ey farzand o‘zingni mol jam qilishdan g‘ofil tutma, ammo halollik bilan mol to‘plashga harakat qil.
 - D) Dono bo‘lmoq uchun donishmanddan ham, bilimsizdan ham o‘rganmoq kerak.

5. Qaysi javobda “Ravshan” dostoniga oid ma’lumot keltirilgan?
 - A) Ushbu doston qahramoni akasidan arazlab Qalmoq yurtiga ko‘chib ketadi.
 - B) Ushbu doston qahramoni poyga, yoy tortish, tanga pulni urish va kurash shartlarini bajaradi.
 - C) Ushbu doston qahramoni yorini qalpoq bozoridan qidiradi.
 - D) Ushbu dostonda cho‘ponlar bo‘rining og‘zidan qutqarib olgan bolani Gurkiboy deb atashadi.

6. "Suv tekin" iborasiga zid ma’noli so‘z qaysi javobda beilgan?
 - A) narx
 - B) ko‘p
 - C) arzon
 - D) qimmat

7. Qaysi gapdagi ajratib ko‘rsatilgan so‘z “dastlabki” so‘zi bilan o‘zaro ma’nodoshlik hosil qila olmaydi?
 - A) Voqeа haqidagi birlamchi ma’lumotlarga asoslanib qolish ham to‘g‘ri emas.
 - B) Bu keng xonaga ilgari ham kirganman.
 - C) Eng avval o‘qiganlarimiz ham shunday hikoyalari edi.
 - D) Qishning ilk kunlaridayoq qor uchqunlay boshladi.

8. *Ularning yoni... ot choptirib, changitib o‘tish insonlik sha’ni... isnoddir.*

Ushbu gapda nuqtalar o‘rniga qaysi kelishik qo‘sishchalarini qo‘llash uslubiy jihatdan to‘g‘ri sanaladi?

 - A) chiqish, jo‘nalish
 - B) tushum, o‘rin-payt
 - C) tushum, chiqish
 - D) chiqish, tushum

9. Qaysi gapda jo‘nalish kelishigi qo‘sishchasing noo‘rin qo‘llanishi uchraydi?
 - A) Biz o‘zimizda bor narsalardan har doim to‘g‘ri foydalanishga harakat qilishimiz kerak, do‘stim.
 - B) Odamzod nima uchun osmonga charaqlab yotgan yulduzlarni ko‘rib, ko‘ngli zavqqa to‘ladi?
 - C) Yuz yil davomida bunyod qilingan narsalar bir soatning ichida barbod bo‘lishi mumkinligiga ishondim.
 - D) Beruniy qadimgi Xorazm madaniyati haqidagi asarida afsona va rivoyatlarga ham murojaat qiladi.

10. *Bu asarda shoир o‘zidan oldin yashab o‘tgan va o‘zi bilan bir davorda yashagan shoirlar ijodiga oid she’rlardan namunalar*

Ushbu gapdagi ko‘p nuqta o‘rniga qaysi birlikni qo‘llash uslubiy jihatdan to‘g‘ri sanaladi?

 - A) qilgan
 - B) ijod qilgan
 - C) berilgan
 - D) keltirgan

11. Qaysi gapda inkor ma’nosini ifodalagan fe’l qatnashgan?
 - A) Bu gapni akasiga bildirib qo‘ymagan ekan.
 - B) Berilgan ishlarni bajarmasdan qo‘ymaydi.
 - C) Bu quyma satrlar o‘quvchilar qalbida yashaydi.
 - D) Bizda siz xohlagan kitoblardan yo‘q.

- 12.** Qaysi gapda ajratib ko'rsatilgan so'z o'rinni ma'nosini bildirgan?
- A) *Bu gapdan ruhlangan yigitlar olg'a yurishibdi va manzilga yetib borishibdi.*
 B) *Sarvigulni podsho hammadan ko'proq sevar ekan.*
 C) *"Keyin" u yoqqa o'tamiz", – deb o'ng tarafdag'i oynavand uyga ishora qildi.*
 D) *Yigitlar birin-ketin xonaga kirib kelishdi.*
- 13.** *Odob shunday tojki, u aqli farosatlari odamlarning boshini bezab turadi.*
 Ajratib ko'rsatilgan so'zlar qaysi vosita bilan bog'lansa, gap mazmunan to'g'ri shakllanadi?
- A) *yo ..., yo* B) *ammo* C) *na ..., na*
 D) *hamda*
- 14.** Otli so'z birikmalari berilgan javobni aniqlang.
- A) *xorijiy mahsulot, keng imkoniyat*
 B) *muhokama qilmoq, tashkil etmoq*
 C) *muattar ifor, yo'li oydin*
 D) *Salima uchun, rivojlangan sari*
- 15.** *Biroq urralarni sevmaydi tilim, Urra demoqlikka qisiqdir tilim.*
 Ushbu she'riy parchadagi kesim(lar)ni toping.
- A) *sevmaydi, demoqlikka* B) *sevmaydi, tilim*
 C) *sevmaydi, qisiqdir* D) *demoqlikka, qisiqdir*
- 16.** *Chindan g'alat erur dunyo ishlari, Miyang g'ovlab ketar o'ylagan sari.*
 Ushbu gap turini aniqlang.
- A) *bog'lovchisiz qo'shma gap*
 B) *ergashgan qo'shma gap*
 C) *bog'langan qo'shma gap*
 D) *sodda gap*
- 17.** *Ushbu adabiy qahramon oilasi uchun o'zini javobgar hisoblaydi, ular och qolmasligi uchun har kuni tog'dan oziq-ovqat topib kelishga harakat qiladi, u nafaqat o'z oilasini ochlikdan asraydi, balki xalq boshiga kelgan qironni ham daf etadi, ya'ni ajdarni o'ldirib, obi hayotni xalqqa qaytaradi.*
 Ushbu ma'lumotda qaysi xalq dostonidagi voqealar bayon qilingan?
- A) "Ravshan" B) "Kuntug'mish"
 C) "Alpomish" D) "Rustamxon"
- 18.** Alisher Navoiy "Sab'ai sayyor" dostonida Suhayl:
*... Pahlovonliq ermas ul
 Kim, kishi makr birla urg'ay yo'l...
 Sen agar zohir etting itlikni,
 Men sanga ko'rguzay yigitlikni", – deganida Jobirning qaysi xatti-harakatini nazarda tutadi?*
- A) *Jobirning o'z sipohidan ajralib qolgan Navdarni asir olganini*
 B) *Jobirning to'fondan talafot ko'rgan Nu'monni asir olganini*
 C) *Jobirning Mehrga oshiq bo'lib qolganini*
 D) *Jobirning Suhaylni jang paytida kemasini teshib qo'yib, hiyla bilan yengganini*
- 19.** Asqad Muxtorning "Chinor" romanida "O'zini deb yashagan – o'lik" deya qaysi adabiy qahramonning qilmishi nazarda tutilgan?
- A) *Bektemir* B) *Azimjon* C) *Akbarali*
 D) *Ochil bobo*
- 20.** G'afur G'ulomning "Vaqt" she'rida qo'llangan Gerostrat nomi qanday badiiy-g'oyaviy maqsad uchun xizmat qilgan?
- A) *insonlar ezgu ishlarni ko'proq nom taratish uchun qilishi kerakligini anglatish uchun*
 B) *insonlar hamisha yod etishi uchun har qanday mushkul ishni ham amalga oshira olish kerakligini anglatish uchun*
 C) *inson o'z nomining qanchalik ko'p ulug'lanishini xohlasa, shunchalik ulkan ishlarga qo'l urishi kerakligini anglatish uchun*
 D) *inson shuhrat taratish uchun biror buzg'unchilikka qo'l urishi noto'g'ri ekanligini anglatish uchun*